

UDK: 378.015.31:004.9:741

**TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILARNING  
IJODIY QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOG-  
USTOZLARNING TUTGAN O'RNI**

*Olimov Anvarjon Mamirovich*

*Qo'qon Universiteti, Ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

*aolimov321@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilardagi ijodiy qobilyatlar, ularni metodik usullar orqali tarbiyalash. Auditoriyalarda bilim berishda ustozlarning o'quvchilar bilan tasviriy san'at fani mashg'ulotlari orqali ulardagi ijodiy qobilyatlarini yana ham shakillantirish maqsadida olib borilayotgan mashg'ulotlarda tutgan o'rni haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy san'at, ijodiy qobilyat, auditoriya, akvarel, rangtasvir, metod, qoramalar, etyudlar, qalam, kompozitsiya.

**Kirish**

Ijodiy qobilyat bu bizlarga berilgan mo'jizaviy tuxfadur. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida tasavvur asosida ijodiy ish bajarish, har doim o'quvchilar faoliyatida muxim kasb etadi. Shuningdek, moziydan lavhalarni, jamiyat hayotining tarixiy voqealarini va shu lahzadagi faqatgina kelajakni yaratishga imkon beradi. Tasavvur insonning butun hayoti davomida shakllanadi va doimiy etyutlar ishlab borishi orqali rivojlanadi. Bunga ta'lim jarayonida olingan bilimlar hajmini sezilarli kengayishi, turli xil ko'nikma va malakalarni egallashiga yordam beradi. Kuzatuvlarning zahirasi qancha ko'p bo'lsa, ularni tasavvur faoliyatida qo'llashga shuncha ko'p imkoniyat mavjuddir. Rivojlanmagan tasavvur bilan o'quvchi ijod qila olmaydi va bunday holatda, tabiatning uzoqlashgan nusxasini yaratishi mumkin. Mashhur professor K.D.Troximenko, o'quvchi kompozitsiyani bajarishda barcha narsani naturadan oladi va tasavvuriga ko'ra "o'zi bilganicha" biron narsani hal qilishga qo'rqadi. Rus rassomi I.Ye.Repin ham natura haqida shunday yozadi: "Naturadan ko'rib bajarilgan har qanday ish eng oliy maktabdur". Ha, o'quvchining ijodiy tasavvuri va qobilyati to'g'ri shakillanishida naturaning o'rni yuqoridir. Sababi natura, etyud va tezkor qoramalar ijodkorni xato ish qilishiga yo'l qo'ymaydi. Uning to'g'ri yo'ldan borishini doimiy ta'minlaydi.

Ta'lim olishni yanada rivojlantirishda va shu bilan birgalikda zamonaviy bosqich, an'anaviy ta'lim yondashuvlari, shakil va usullarni kuchaytirishga imkon beruvchi axborot kommunikatsiya texnologiyalari ustunligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda ilm-fanda aralash ta'lim texnologiyasi orqali talabalar mustaqil xolda masofadan

o'qituvchilardan bilim olishib, ushbu o'qitish tizimi orqali o'quv materiallarini o'rganish vaqti, joyi, bevosita o'quv jarayonini nazorat qilish imkoniyatlari shakllantiradi. O'quv yili jaryonlarida talabalar sifatli ta'lim olishi, ulardagi iqtidorlarni sayqallanishib borishini ta'minlash pedagog-ustozlar tomonidan amalga oshiriladi. Bu bilan kamolotga yetib borayotgan har qanday yoshlarning ilm yo'li porloq bo'lishi tabiiy. Iqtidorli yoshlar o'zlarining ajoyib san'at asarlari bilan turli davlatlar halqaro ko'rgazmalarda qatnashib imkoniyatlarini sinab olishlari, tajribalar almashishlari va shu bilan birgalikda kelajakda Vatanimiz ravnaqi yo'lida o'zlarini ulkan xissalarini qo'shishlari mumkin.

Ijod-asarni qiyinchiliksiz yaratilishiga olib keluvchi ilhomlanish natijasidir. Ilhomlanish-yakuniy natijasi sezilarli darajadagi ijodiy yutuqlar hisoblangan rassomning barcha ruhiy kechinmalarining zo'r berib ishlashidir. Ilhomlanish o'quvchining shunday ruhiy holatini aks etadiki, u orqali barcha ishining uddasidan chiqadi. Uning ijodiy intilishlari bilan faoliyatining natijasi to'la muvofiq kelishi kuzatiladi. Bilim, ko'nikma, malaka, badiiy qiyofaning shakllanish jarayonining barcha tarkibiy qismlari, o'quvchining mehnati davomida miqdoriy izchil to'planib, muayyan vaqtdan so'ng yangisiga, sifat jihatidan yanada yuqoriga ko'tariladi. O'quvchi ijodiy faoliyatining bu yangi sifatli mazmuni uning o'ylaganliklariga oson erishishi, avval uddasidan chiqa olmaganliklarini bajara olishida namoyon bo'ladi. O'quvchiga ustoz pedagoglar tomonidan berilayotgan har bir bilim uning keying ish faoliyatida muhim axamiyat kasb etadi. O'quvchi tasviriy san'at darslarida yangi bilimlarni o'rganishi va kuzatuvchanlik natijasida badiiy ijodda muxim xisoblanadi. Badiiy asarni yaratish vazifalarni ijodiy hal etishning katta tayyorgarligi bilan birga hamohangdir. Materialni doimiy to'planishi ijodiy vazifalarni bajarishda rassomning umumiy tayyorgarligini yaratadi, uni navbatdagi ijodiy tasavvurini yechishga yo'naltiradi. Shuni ta'kidlashni istardimki, o'quvchilarning ijodiy tafakkurni rivojlanishida ayniqsa muzeylar va ko'rgazmalarni tomosha qilish, rassomlar bilan suhbatda bo'lish katta yordam beradi. Ijodning barcha bosqichlarida zo'raki mehnat, tafakkurning faol ishlashi, tajriba va qat'iyatsizlik bularning bari o'quvchining tasavvurisiz mavjud bo'la olmaydi. Yuqorida ko'rsatib o'tilganlarning barchasi ta'lim oluvchini ijodiy va shaxs sifatida shakllantiradi. Yoshlarda ulardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va bu orqali jamiyatimiz ilm-fan soxalarida yetuk kadrlarni tayyorlash bugungu kun pedagoglarining ustoz-shogird an'anali asosida olib borayotgan xarakterlarini va yutuqlarini misol o'rnida ta'kidlashimiz mumkin. Psixologlarning tadqiqotlariga ko'ra, uch yoshga kelib, barcha bolalarda tasviriy san'at qobiliyati taxminan bir xil darajada bo'lishligi kuzatilgan. Shuning uchun, bolaning maxsus iste'dodini ko'rsatishini kutish va bundan keyin uni rivojlantirish kerak emas. Badiiy qobiliyatni rivojlantirish uchun har bir o'quvchi uchun bir nechta oddiy sharoitlarga rioya qilish mumkin. Pedagoglar o'zining g'oyalari bilan harakat qilishligi

kerak. Boshida, o'quvchini chizish bilan qiziqtirish, keyin uni hayoliy tasvirlarni ko'chirishga qiziqish ko'rsatish va faqat chuqurroq o'qish uchun o'quvchining tasviriy san'at asoslarini o'rgatishni boshlashi aniq bo'lganidan keyin uni qo'llab-quvvatlash. Va, albatta, ustozlar shogirdlarini faoliyatini maqtash va uni rag'batlantirishi orqali ularning yana ham mehnat qilishga, keyingi mashg'ulotlarda ijobiy ta'sir etishi mumkin.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirishda pedagog-ustozlar tomonidan eng muxim bo'lgan yondoshuvlar quyidagilardan iborat:

- Mashg'ulotlarda fanga oid bo'lgan amaliy va nazariy metodlar orqali o'quvchilarni qiziqтира olish.
- Iqtidorli o'quvchilarni tanlab olish.
- O'quvchilarning barcha zaruriy va sifatli o'quv qurollari bilan ta'minlanganligini nazorat qilish.
- O'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish.
- Mashg'ulotlarda, qo'yilma asosida rasmlar chizishni o'rgatish.
- Tez-tez o'quv amaliyotlariga olib chiqish.
- O'quvchilarni san'at muzeylarga ijodiy sayoxatga olib borish.
- Har-bir o'quvchi bilan individual ishlash.
- Etyudlar ishlashni tizimli ravishda yo'lga qo'yish.
- Rag'batlantirish.
- Qoralama va tezkor tasvirlarni mashq qilish.
- O'quvchilar orasida sog'lom raqobatni xosil qilish.
- Ustoz musavvirlar ishlarini kuzatish va ularni ishlaridan nusxalar ko'chirish.
- O'quvchilar uylarida yoki ustozlaridan yiroqda rasm chizishganida, kamchiliklarini kuzatish maqsadida o'z ishlarini oynada ko'rishi va kamchiliklarini aniqlashligi.
- Yoshi kichik, yoki mashg'ulotlarni endi boshlayotgan o'quvchilar bilan ishlashda avval sodda ko'rinishdagi buyumlar yoki geometrik shakillarni chizishdan boshlashi.

Yuqorida ustozlarning o'quvchilar bilan mashg'ulotlar olib borishda eng kerakli bo'lgan tavsifiya va iboralari keltirildi. Albatta, har bir ustoz yuqorida keltirilgani kabi o'quvchilar bilan mashg'ulotlar olib borishsa o'quvchilarning fanga bo'lgan qarashlari, o'zlashtirish natijalari anchayin yaxshilanib boradi.

Jamiyatimizda ijodiy qobiliyatli talabalat talaygina. Ular turli soxalarda o'qib xunar o'rganmoqdalar. Tanlagan soxalari bo'yicha ham nazariy ham amaliy bilimlarga ega bo'lmoqda. Ijodkorlar asosini ko'pincha san'at soxasi vakillari tashkil etadi. Haqiqatdan ham, san'atkor shaxslar ijodiy qobiliyat egalaridur. Ular san'atning qaysi

bir sohasida o'qishmasin yoki mexnat faoliyatini olib borishmasin ularda iqtidor va ijodkorlik namunalari mavjud ekanligiga guvox bo'lamiz. Masalan, tasviriy san'at soxasi vakillarida ijodiy qobiliyat boshqa soxa vakillariga qaraganda birmuncha yuqoriroq darajada ekanligini kuzatishimiz mumkin. Sababi, ijodkor musavvirlar yoki pedagoglarning oz'gacha bir olami mavjud. Ularga berilgan iloxiy tabiat siri ham mana shunda. Ular o'zlarini "olamida" yashaydi, o'zlarini xissiy kechinmalari asosida yangi-yangi san'at asarlarini yozishadi. Asarlari bitguniga qadar shu ijod zavqi bilan yashashadi. Asarga oid ma'lumotlar izlashadi, xayolli, boy tajribalarga asoslanadi va yakunda ajoyib ishlar xosil bo'ladi. Bunday xissiy kechinmalar deyarli barcha usta musavvirlar hayotida sodir bo'ladi. Masalan uyg'onish davrining buyuk olimi, musavvir va ixtirochisi Leonardo da Vinchi ham o'zining ko'plab asarlarida mana shunday xissiy kechinmalarini boshidan o'tqazgan. Uning ayniqsa mashxur Mona Liza asari ham san'atshunoslar va tomoshabinlar tomonidan ko'plab muxokamarlar va turfa qarashlarga sabab bo'lib kelmoqda. Ushbu asar yaratilishi jarayonida rassom tasavvuridagi ayol qiyofasini insonlar orasidan juda ko'p vaqt mobaynida izlagani, qiyofalar ko'plab bo'lsada ijodkor uchun yakuniy nuqta sifatidagi nigox hadeb tolavermagan. Ayol portretidagi noodatiy nigox, tabassum, tushkunlik, o'ychanlik kabi xolatlar ushbu asarning bugungi kunda uning darajasini qanchalik yuqori ekanligini ko'rsatib turadi. Shuning bilan birga da Vinchining ushbu shox asari yer yuzidagi birinchi yaratilgan psixologik san'at asari ham xisoblanadi.

Bugungi kunda jamiyatimizning turli bo'g'inida ijodiy qobiliyatlarning taraqqiy etish omillari keng tarqalmoqda. Ustoz-shogird an'analari taraqqiy etib bormoqda. O'quvchilar mashg'ulotlar orqali ko'plab mexnat qilishmoqda va bajarayotgan ijodiy ishlari orqali kamolotga yetib borishmoqda. Tasviriy san'at mashg'ulotlari bilan bir qatorda Haykaltaroshlik san'ati ham yurtimizda anchayin rivojlandi. O'tgan davrlarga razm soladigan bo'lsak, yurtimizda ko'plab istedadli ijodkor haykaltaroshlar yetishib chiqdi, ularning yaratgan asarlari ko'plab muzeylarda, poytaxt va deyerli barcha viloyat markazlarida kuzatishimiz mumkin. Andijondagi "Z.M. Bobur", Farg'onadagi "Ahmad al Farg'oniy", Toshkent shahridagi "Alisher Navoiy" va yana ko'plab shunga o'xshagan allomalarimiz monumental haykallarini qad ko'targan. Ushbu soxada ham yurtimizda ulkan yutuqlarga erishilayotgani va yurt taraqqiyotiga salmoqli xissa qo'shib kelinayotganidan darak beradi.

Tasviy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarni aniqlash va ularni rivojlantirish orqali pedagog ustozlar yaxshi saviyali ijodkorlarni yetishtirib chiqarishmoqda. Yurtimizda iqtidorli va istedadli yoshlar talaygina topiladi. Jamiyat taraqqiyotida ana shunday yoshlarni kamolotga yetkazish ulardagi qobiliyatlarni shakillantirishning ham yo'l haritasi mavjud. Ushbu harakatlar asnosida o'quvchilarda eng muximi qiziqish va ishtiyoq yuqoriligi muxim omil xisoblanadi.

### **Xulosa**

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ular bilan amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil qilish bugungi kunda pedagog-ustozlarning ustuvor vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlashimiz mumkin. Ijodiy qobiliyatlar jamiyat taraqqiyotining asosiy omili, ularning tasviriy san'at fanlarida foydalanishni tahlil qilib, shunday xulosaga kelish mumkinki, amaliy ishlar metodlaridan foydalanish o'quvchilarning o'quv jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydi, dars vaqtidan ijodkorlik tamoyillaridan oqilona foydalaniladi. Ta'limning interfaoligi oshadi, amaliy hamda nazariy bilim olish orqali ishlash o'quv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, ta'lim tizimida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini jamiyatda taraqqiy etishi, ijodkorlik bilan mukammallashgan qo'shimcha bilimlaraga ega bo'layotgan ta'lim oluvchilar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham samarali bo'lib, ijodkorlikni yanada rivojlantirish, muammoli masalalarni chuqurroq o'rganish uchun dars vaqtini samarali tashkil etish imkonini beradi. Ushbu metodik texnologiya o'quvchilarning faol bilimlar olishlari uchun sharoit yaratish, o'qituvchi tomonidan sarflangan vaqtni optimallashtirish va o'quv jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. B.N Oripov, "Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi" O'quv qo'llanma 2013 y.
2. A.M.Olimov, "O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari" Ilmiy maqola 2022 y
3. X.O.Karimov, N.R.Atayeva, "Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijodiy tasavvurlarini rivojlantirish", Ilmiy maqola 2023 y.
4. "B.N.Oripov, "Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi", O'quv qo'llanma, 128-129 b
5. Oyqaram Boymirzaeva, "Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish", 2-3 b
6. A.M.Olimov, "Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash nazariyasi" Ilmiy maqola 2022 y.